

HAMAS HARAKATI FONIDA SAUDIYA ARABISTONI VA ISROIL MUNOSABATLARI O'ZGARISH TENDENSIYASI

Abduraxmonov Alisher Ulug‘bek o‘g‘li

magistr 2-kurs, TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti

Tel: +998900293533

e-mail: abdurahmonov0101.a@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13947467>

Annotatsiya. Yaqin sharq mintaqasida eng yirik davlatlardan biri va katta ta'sirga ega bo‘lgan Saudiya Arabistoni Falastin muammosini hal qilishni doim o‘zining vazifalaridan biri sifatida e’tirof etib kelgan. Biroq so‘nggi yillardagi tinchlik va barqarorlik sababi ila Isroil bilan yaqinlashuv va o‘zaro diplomatik hamda savdo aloqalarini o‘rnatish bo‘yicha muzoakaralar Hamasning Isroilga hujumi sabab to’xtab qoldi. Ushbu hujum natijasida, Saudiya Arabistoni mintaqada o‘z e’tiborini saqlab qolishi va musulmon olami liderlik kurashi uchun ham Isroil bilan munosabatlarni to’xtatishga majbur bo‘ldi desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Kalit so‘zlar: Falastin, Saudiya Arabistoni, Ibrohim kelishuvlari, iqdtisodiy manfaat, Fors ko‘rfazi monarxlari, tinchlik tashabbusi, 1967-yilgi chegara.

AGAINST THE BACKGROUND OF THE HAMAS MOVEMENT, THE RELATIONS BETWEEN SAUDI ARABIA AND ISRAEL ARE CHANGING

Abstract. Saudi Arabia, which is one of the largest countries and has great influence in the Middle East region, has always recognized the solution of the Palestinian problem as one of its tasks. However, the peace and stability negotiations with Israel in recent years on the establishment of mutual diplomatic and trade relations have stalled due to the attack of Hamas on Israel. As a result of this attack, we would not be wrong to say that Saudi Arabia was forced to stop relations with Israel in order to maintain its focus in the region and to fight for the leadership of the Muslim world.

Key words: Palestine, Saudi Arabia, Abraham Accords, economic interest, Gulf monarchies, peace initiative, 1967 border.

НА ФОНЕ ДВИЖЕНИЯ ХАМАС ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ САУДОВСКОЙ АРАВИЕЙ И ИЗРАИЛЕМ МЕНЯЮТСЯ

Аннотация. Саудовская Аравия, одна из крупнейших и влиятельных стран ближневосточного региона, всегда признавала решение палестинского вопроса одной из своих задач. Однако переговоры о мире и стабильности с Израилем в последние годы по установлению взаимных дипломатических и торговых отношений зашли в тупик из-за нападения ХАМАС на Израиль. В результате этой атаки мы не ошибемся, если скажем,

что Саудовская Аравия была вынуждена прекратить отношения с Израилем, чтобы сохранить свое внимание в регионе и бороться за лидерство в мусульманском мире.

Ключевые слова: Палестина, Саудовская Аравия, Авраамовы соглашения, экономические интересы, монархии Персидского залива, мирная инициатива, граница 1967 года.

Saudiya Arabistoni shu paytgacha biror Arab-Isroil urushlarining bevosita ishtirokchisi bo‘lmadi. Biroq mintaqadagi faol o‘yinchi sifatida doimiy bu muammo bilan shug‘ullanib kelgan. Bunga majbur qiluvchi omillar ham mavjud. Bular Qatarning so‘zsiz Falastinni qo‘llab-quvvatlashi va Eronning mintaqadagi shia guruhlari Hizbulloh, Xusiyalar orqali Falastinning Isroilga qarshi kurashini qo‘llaganini aytish mumkin. Saudiya Arabistoni esa doim mintaqadagi har qanday urushga qarshi munosabatda bo‘lgan.

1967-yilda Isroil Falastin yerkari, Misrning Sinay yarimoroli, Suriyaning Jo‘lan tepaliklari, Livanning bir qismini bosib oladi. Bu vaziyatda Saudiya arab davlatlariga siyosiy, moddiy va insonparvarlik yordamlar ko‘rsatib keladi. Muammolarni hal qilish bo‘yicha ham ko‘p tashabbuslarni ilgari surgan. 1982-yilda podshoh Fahd bin Abdulaziz Ol Saud Arab-Isroil mojarosini BMT Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleyasi tegishli qarorlari asosida siyosiy vositalar bilan hal etish, xususan, Isroil bosib olgan arab yerlarini qaytarish hisobiga Tel-Aviv bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatishga oid o‘z tashabbusini ilgari suradi.¹ Har bir arab davlati kabi Saudiya Arabistoni ham o‘zining rivojlanish yo‘li va rejalariga ega. Shu munosabat bilan mintaqada tinchlik va barqarorlik bo‘lishi umumiy iqtisodiy rejalar samamrdorligini oshishi uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari tashqi dunyoda ham musulmon dunyosi bilan ham Isroil bilan doimiy yaxshi munosabatlarga ega bo‘lishni xohlayotgan Amerika Qo‘shma Shtatlari uchun ham Ibrohim kelishuvlarining ahamiyati katta edi. Biroq 2023-yil 7-oktabrda Hamasning Isroilga hujumlari ortidan, Isroilning keng qamrovli urush harakatlarini boshlab yuborilishi va G‘azo mintaqasida vaxshiyona genotsidning amalga oshirilishi Isroil va Saudiya Arabistonining ijobjiy aloqalar bo‘yicha muzokaralariga jiddiy zarba berdi.

14-noyabrdan 6-dekabrgacha vaqt oralig‘ida Vashington Instituti Saudiya xalqining Hamas-Isroil urushiga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganib, 1000 nafar saudiyaliklardan so‘rovnama oldi. Ushbu so‘rovnama natijasiga ko‘ra, 91% saudiyaliklar yo‘qotish va halokatlarga qaramay,

¹ <https://kun.uz/news/2023/10/14/falastin-masalasida-saudiya-va-misr-qanday-yol-tutmoqda-diplomat-bilan-suhbat?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F10%2F14%2Ffalastin-masalasida-saudiya-va-misr-qanday-yol-tutmoqda-diplomat-bilan-suhbat>

G‘azodagi bu urush Falastinliklar uchun g‘alaba deya bayonot bergan.²

Arab davlatlarining ham 96% Isroilning urush harakatlari sabab u bilan har qanday diplomatik aloqalarni to‘xtatib qo‘ydi. Bundan tashqari Saudiya Arabistoniga xalqi orasida Hamasga nisbatan ijobiy munosabatlар 10 foizdan 40 foizgacha ko‘tarilib ketdi³. Bu voqealar fonida tabiiyki Isroil bilan munosabatlarni saqlab turish Saudiya uchun qimmatga tushishi aniq edi.

Mustaqil Falastin davlatini tashkil qilmay, Falastin–Isroil ziddiyatini bartaraf etib bo‘lmaydi, deb hisoblaydi Saudiya Arabistoniga tashqi ishlar vaziri shahzoda Faysal ibn Farhan.

Nyu-Yorkda o‘tayotgan BMT Bosh assambleyasi majlislari doirasida «Al-Arabiya» telekanaliga intervyu bergan diplomat ikki davlat tamoyili kun tartibini qaytishi lozimligini ta’kidlagan.

«Falastin muammosini hal etish ikki davlat tamoyili hamda xalqaro hujjatlarga muvofiq Falastin davlatini ta’sis etishga asoslanishi kerak. Biz ikki davlat yechimini asosiy kun tartibiga qaytarishga harakat qilmoqdamiz», – degan Faysal ibn Farhan⁴.

Saudiya Arabistoniga va qolgan 5 Fors ko‘rfazi monarxlari bilan birgalikda AQSH va Yevropa davlatlarining real ishtirokisiz muammo to‘liq hal etilishini tushunsalarda, hozirda birgalikda mintaqada tinchlik va barqarorlikka erishish uchun o‘zaro hamkorlikda, 2024-yil mart oyida Saudiya Arabistoniga va boshqa besh Fors ko‘rfazi monarxiyasini o‘z ichiga olgan Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashi o‘zining 43 yillik tarixida birinchi marta mintaqaviy xavfsizlik bo‘yicha qo‘shma qarashini e’lon qildi. Unda Falastin masalasiningadolatli yechimiga erishish uchun Arab Tinchlik Tashabbusiga asoslangan ikki davlat yechimini yaratish zarurligi aniq ta’kidlangan. Ushbu yondashuv Fors ko‘rfazidagi arab davlatlari o‘rtasida birdamlilikni mustahkamlashga qaratilgan va Saudiya Arabistonining o‘ziga xos belgilarini aniq o‘zida mujassam etgan - bu birlashgan pozitsiyaga birinchi qadamdir. Biroq, bunday reja uchun o‘t ochishni to‘xtatish shartli hisoblanadi⁵.

Xulosa qilib aytganda, Saudiya Arabistonining munosabati o‘zining iqtisodiy rejalar, mintaqadagi mavqeい va siyosiy ambitsiyalariga bog‘liq bo‘lsa-da xalqining keskin munosabatlari va mintaqadagi umumiy norozilik sabab Isroil bilan munosabatlarni normallashtirish muammo sifatida qolmoqda.

² <https://www.washingtoninstitute.org/policy-analysis/new-poll-sheds-light-saudi-views-israel-hamas-war>

³ <https://www.washingtoninstitute.org/policy-analysis/new-poll-sheds-light-saudi-views-israel-hamas-war>

⁴ <https://www.xabar.uz/uz/xorij/saudiya-arabistoni-tashqi-ishlar-vaziri>

⁵ <https://www.rosalux.de/en/news/id/51906/saudi-arabia-and-the-war-in-gaza>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz/news/2023/10/14/falastin-masalasida-saudiya-va-misr-qanday-yol-tutmoqda-diplomat-bilan-suhbat?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F10%2F14%2Ffalastin-masalasida-saudiya-va-misr-qanday-yol-tutmoqda-diplomat-bilan-suhbat>
2. <https://www.washingtoninstitute.org/policy-analysis/new-poll-sheds-light-saudi-views-israel-hamas-war>
3. <https://www.xabar.uz/uz/xorij/saudiya-arabistoni-tashqi-ishlar-vaziri>
4. <https://www.rosalux.de/en/news/id/51906/saudi-arabia-and-the-war-in-gaza>